



## OLIV TA'LIMDA KORRUPTION HOLATLARNI OLDINI OLISH

**Kasimova Dildora**

Andijon davlat pedagogika  
instituti tadqiqotchisi

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p1-40>

### ARTICLE INFO

Received: 06<sup>th</sup> February 2023

Accepted: 16<sup>th</sup> February 2023

Online: 17<sup>th</sup> February 2023

### KEY WORDS

*Oliy ta'lim, korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyasiz soha dasturi.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashning dolzarbligini belgilovchi omillar ko'rsatib o'tilgan. Sohaga oid o'zgarishlar haqida ma'lumotlar berilgan. Oliy ta'lim tizimida korrupsion holatlarni oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.*

Ta'lim insonning asosiy huquqi va shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning asosidir. Bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri bo'lgan ta'limdagi korrupsiyadir. Bu borada mustaqil O'zbekistonda ta'limda korrupsiyasiz soha dasturi asosida juda jiddiy qadamlar tashlandi. Hozirgi kunda, korrupsiyaga qarshi kurashilmagan va ta'lim tizimi korrupsiyadan tozalanmagan, halol va shaffof bo'lmagan mamlakat tanazzulga yuz tutishi aniqdir.

Afsus bilan shuni aytish kerakki, yaqin tariximizda ta'lim sohasini korrupsiya chirmovug'day o'rab olgan edi. Maktabgacha ta'lim muassasasidan tortib, to oliy ta'limgacha korrupsiya girdobida qolgandi. Buning oqibatida xalqimizda ta'lim tizimiga nisbatan ishonch yo'qolgan va hamma narsani zamirida korrupsiya bor degan tushuncha shakllanib ulgiran edi. Ta'limga nisbatan ishonch o'rnini aksincha nafrat egallagan edi.

Bugungi kunda, butun mamlakatda, aynan ta'limda bu korrupsion halqani uzib tashlash, unga qarshi murosasizlik ongini shakllantirish va kurashish bo'yicha jadal ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi bilan ta'lim tizimidagi korrupsion tuzilmalarga qarshi kurashish, bu borada qattiq turishi orqali Korrupsion holatlardan tozalanmoqda, desak bo'ladi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi keskin kurashilmoqda. Yangi o'quv yilida o'qishga qabul, o'qishni ko'chirish masalalarida korrupsiyaviy harakatlarga butunlay barham berilmoqda. Imtihonlar asta-sekinlik bilan korrupsion jozibadorlikdan xalos qilinmoqda.

Avvalo, abituriyentlar hujjatlarini onlayn qabul qilishdan boshlab, barcha jarayonlar Davlat test markazi tomonidan amalga oshirilmoqda. Xatto, tojik, qozoq va turkman tillaridagi ta'lim yo'nalishlarida ham DTM tomonidan test sinovlari o'tkazilmoqda.

Yangi o'quv yiliga qabul jarayonlaridagi kasbiy (ijodiy) imtihonlar masalasi ham korrupsiya o'chog'ida edi. Bu borada kasbiy (ijodiy) imtixonlarda ishtirok etayotgan



abituriyentlarning ota-onalari farzandlari ijodiy imtihondagi nohaqliklar tufayli talabalar safiga qabul qilinmayotganligidan norozi bo'lishardi.

Endilikda ijodiy imtihonlar qur'a tashlash yo'li bilan tanlab olingan, boshqa hududlardan taklif etilgan mutaxassislar tomonidan qabul qilinmoqda. Bu jarayon inson omili, ya'ni korrupsion holat yuz berishining oldini oladi. Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a'zolari haqidagi ma'lumotlar va ularning respublikamizning qaysi viloyatidagi oliygohlarga borishi oxirgi kungacha o'zlaridan ham sir tutilishi bu jarayonning yanada shaffof o'tishiga xizmat qilmoqda. Qolaversa, ijodiy imtihonlarning keng jamoatchilik: xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari, mahalla, nuroniy vakillari, ota-onalar hamda huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari ishtirokida o'tkazilishi, barcha jarayonlar so'nggi rusumdagi kuzatuv kameralari orqali maxsus ekranlarda to'g'ridan-to'g'ri namoyish qilinayotganligi korrupsiya bilan bog'liq savollarning yuzaga kelishini oldini olmoqda. Yana bir tomoni, oliy ta'lim dargohlaridagi joriy imtihonlar (sessiya) bugun shunday tartib-tamoyil asosida o'tkazilmoqdaki, unga ko'ra muayyan fandan dars o'tgan professor-o'qituvchi imtihonda qatnashmaydi.

Imtihon jarayonlariga Prezidentimizning "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda talabalar bilimni baholashning zamonaviy, shaffof va adolatli usullari, shu jumladan, muayyan fandan dars bergan pedagogning yakuniy nazorat jarayonlaridagi ishtirokini to'liq istisno etadigan tizim joriy etilgan.

Boshqa tomondan, xodimlarning ish haqi va OTM uchun xarid qilinadigan uskunalar oldi-berdisi to'liq O'zASBO tizimi orqali amalga oshirilmoqdaki, bunday hisobdorlik va shaffoflik mazkur jarayonlarda korrupsiya ro'y berishiga zarracha o'rin qoldirmaydi. Bunday davlat xaridlari va hisobxona tomonidan amalga oshirilayotgan shartnomalar oliygohlar Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi tomonidan doimiy nazorat qilib kelinmoqda.

Talabalarning o'qishini ko'chirish bugungi kunda to'liq tartibga solingan. O'qishni ko'chirish uchun talabalar kerakli hujjatlarni vazirlikka onlayn topshiradi. Ushbu arizalar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat qabul komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilib, qaror qabul qilinadi. Prezidentimizning 2022-yil 15-iyundagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, bir davlat OTMdan boshqa davlat OTMga o'qishni ko'chirishga quyidagi ikki holatda ruxsat beriladi:

- Talaba oila qursa va turmush o'rtog'i doimiy yashaydigan hududdagi OTMga o'qishini ko'chirmoqchi bo'lsa;
- Davlat xizmatchisi ish yuzasidan boshqa hududga ko'chsa va turmush o'rtog'i yoki voyaga yetmagan farzandining o'qishini o'sha hududga ko'chirmoqchi bo'lsa (ishga kirgan vazirlik xati asosida);

Boshqa holatlarda "ichki ko'chirish"ga ruxsat yo'q. Boshqa hududga ham, o'z hududidagi boshqa OTMga ham.

Xorijdan o'qishni ko'chirishga quyidagi uch holatda ruxsat beriladi:



– Mos va turdosh yo‘nalishga test yoki ijodiy imtihon topshiradi hamda o‘tish balini to‘plash talab etiladi;

– O‘tish balini to‘play olmasa, bir martalik tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrak asosida o‘qishini ko‘chirishga ruxsat beriladi;

Xorijdan mos va turdosh bo‘lmagan yo‘nalishga o‘qishni ko‘chirishga ruxsat berilmaydi. O‘qishni ko‘chirish to‘liqligicha shaffof va korrupsiyadan holi tarzda o‘tkaziladi.

Magistraturaga qabul jarayonlari ta‘limning bakalavriat bosqichini tugatgan talabalarining o‘qish davomida to‘plagan o‘rtacha bali asosida (imtihonsiz) amalga oshirilmogda. Faqatgina talabaning chet tilini bilish darajasi bo‘yicha olingan milliy yoki xalqaro sertifikati mavjud bo‘lishi shart. Ilgari amalda bo‘lgan, kafedra a‘zolari tomonidan olinadigan mutaxassislik imtihonlarining bekor qilinganligi, bu sohada ham korrupsiyaviy holatlarga barham berilganligini ko‘rsatadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish qisqa fursatda oliy ta‘limda qisqa fursatda o‘z samarasini bermoqda. Bu borada pedagoglarga berilgan imkoniyatlar va ish haqlarini oshirilishi ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Oliy ta‘lim tizimi tomirlarida sekin asta toza qon oqa boshladi. Lekin, korrupsiya ham osonlikcha jon bermasligini inobatga olib, bu boradagi kurashni to‘xtamaslik kerak, deb hisoblayman. Bugungi kunda, Korrupsiyani yangidan-yangi ko‘rinishlari bosh ko‘tarib, har bir tizimda har xil ko‘rinishda namoyon bo‘layotganligini ham bor gap. Hushyor bo‘lishimiz kerak. Bu borada talaba-yoshlarimiz faolligi, vatanparvarligi muhim o‘rin tutishini unutmashimiz zarur.

Asosan ta‘limdagi korrupsiya imtihonlarda, talabalarni o‘qishga qabul qilishda, poraxo‘rlik natijasida iste‘dodlarning noto‘g‘ri tayinlanishlari sodir bo‘lganda, talabalar o‘rtasida korrupsiya, manipulyatsiya va favoritizm madaniyatini targ‘ib qilishda ular shaxsan ishtirok etganda sodir bo‘ladi.

Darhaqiqat, o‘quvchilar va yoshlar uchun axloqiy tarbiya korrupsiya siklini buzishga yordam beradi, chunki bugungi yoshlar ertangi kunning ilg‘or yetakchilaridir. Shuni aytish kerakki, Korrupsiyaga qarshi ta‘lim alohida ishlay olmaydi. Talabalar o‘rganadigan va o‘sadigan muhit ularning korrupsiyaga munosabatlarini shakllantirishda hal qiluvchi ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun axloqiy ta‘lim kasbining ya‘ni ,avvalo, o‘qituvchilarning munosabati va xatti-harakatlarini o‘zgartirish, boshqaruvni takomillashtirish va ta‘lim sohasi yetakchilarini ijtimoiy nazoratini kuchaytirish bo‘yicha kengroq harakatlarning bir qismi bo‘lishi kerak. Ta‘lim sohasidagi korrupsiya bilan shug‘ullanish bo‘yicha muhokama choralari o‘quv muhitini o‘z ichiga olishi kerak. Ta‘lim sohasidagi korrupsiya bilan kurashish choralari yaxlitlikni qadrlaydigan o‘quv muhitini, samarali, shaffof va hisobdor boshqaruv bilan yaxshi ishlab chiqilgan boshqaruvni va sektorning ishlashi va resurslarni iste‘mol qilishini ijtimoiy nazorat qilishning to‘g‘ri tizimini o‘z ichiga olishi kerak.

Korrupsiya yomon ta‘lim natijalariga hissa qo‘shadi. Ta‘lim muassasida mablag‘larini o‘zlashtirish yoki yo‘naltirish allaqachon moliyalashtirilmagan muassasalarni resurslardan mahrum qiladi. Nepotizm va favoritizm yomon malakali o‘qituvchilarni yollashga olib kelishi mumkin, takliflarni qalbakilashtirish esa darsliklar va sifatsiz materiallarga olib kelishi mumkin.



Ta'limdagi korrupsiyani bartaraf etishning yagona rejasi yo'q, ammo resurslar oqishini kamaytirish va ta'lim natijalarini buzadigan jinoiy va axloqsiz xatti-harakatlarni har doim nazorat qilish kerak.

Mustaqil mamlakatimizda bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim targ'ibot, huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'limda talabalarning huquqiy ongi va madaniyati, korrupsiyaga qarshi murosasizlik xissini shakllantirish va korrupsiyaga qarshi immunitetni oshirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rilmogda. Korrupsiyasiz sohaga asoslangan jamiyat va davlatni yaratish mamlakat taraqqiyotining mustahkam kafolati bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 7-dekabr kuni Konstitutsiyamizning 26 yilligiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqlarida «Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz» [1] deb, ta'kidlagan edilar. Davlatning korrupsiyaga qarshi yo'naltirgan barcha islohotlari fuqarolarning huquq va manfaatlarini ko'zlab amalga oshirmogda. Ayniqsa, ta'lim sohasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish orqali mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratmogda. Xususan, Prezidentimiz 2022- yil 20-dekabr kungi Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida:

biz uchun dolzarb muammo bo'lgan korrupsiya masalasiga alohida to'xtalib o'tmoqchiman.

O'tgan ikki yilda 5 mingga yaqin mansabdor korrupsiyaga doir jinoyatlar bo'yicha javobgarlikka tortildi. Lekin, ochiq aytish kerak, bu – masalaning sababi bilan emas, oqibati bilan kurashish.

Deputat va senatorlar, mahalliy kengashlar ham bong urib, aniq sohalarni tahlil qilib, korrupsiyani bartaraf etish bo'yicha faol bo'lishlari kerak emasmi?

Har bir deputat o'zining okrugidagi byudjet hisobidan bo'layotgan qurilishlar, yo'llarni, har oyda borib ko'rsa, buyurtmachi va pudratchidan sifatni talab qilsa, bilasizlarmi, ahvol qanday o'zgaradi? Buning uchun sizlarda yetarli vakolat ham, shijoat ham bor.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida alohida qonunlar qabul qilinib, huquqiy asoslar yaratildi.

Endi amaliy ishlarni kuchaytirish kerak. Sun'iy monopoliyaga, yopiq sxemalarga, umuman korrupsiyaga imkon yaratadigan barcha bo'shliqlarga barham beriladi deb ta'kidladi.

Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish dolzarb masala ekanligini turli omillar bilan belgilashimiz mumkin, biroq quyida keltiriladigan omillar eng ustuvorlari hisoblanadi: 1) zamonaviy davlat boshqaruvi va xususiy sektorda kasb turlari shiddat bilan ko'payayotgan bir vaziyatda malakali kadrlarga bo'lgan talabning ortishi va ijobiy natijalarga erishishda yetuk kadrlar xizmatidan foydalanish xal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgani; 2) bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida farovon hayot kechirish, kasbiy va insoniy hurmat e'tiborga ega bo'lish uchun oliy ma'lumotli kadr bo'lish; 3) yuqorida keltirilgan ikki omil asosida taraflar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarga korrupsiyaning aralashuvi natijasida kelib chiqadigan jiddiy salbiy oqibatlar. Davlat va xususiy sektorda malakali kadrlarga bo'lgan talab va shaxsni oliy ma'lumotga ega bo'lish orqali moddiy hamda ma'naviy manfaatni qo'lga kiritishga intilishi subyektlar o'rtasida munosabatlar ortishiga va qonuniy munosabatlarni korrupsiyaviy munosabatlarga o'zgarishiga kuchli ta'sir qiladi. Zero, oliy



ma'lumot olish va malakali kadr bo'lish og'ir mehnat talab etishi, hamma ham o'z kuchi va qobiliyati bilan unga erisha olmasligi ularni korrupsiya usulidan foydalanishga undaydi. Birinchi asos bo'yicha davlatning oliy ta'limga bo'lgan yuqori e'tibor va ehtiyoji quyida keltiriladigan raqamlar ham isbotlangan. Bugungi kunda, Respublikada 117 ta oliy ta'lim muassasi (mantda OTM shaklida) mavjud bo'lib, ularning 96 tasi milliy, 21 tasi xorijiy muassasalar hisoblanadi. Ularda bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha 410 ming, magistratura yo'nalishi bo'yicha 13 ming nafar talabalar ta'lim olmoqda. So'nggi uch yil davomida oliy ta'lim sohasida 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi. Bu davrda mamlakatimizda 6 ta OTM, 17 ta filiallar, 14 ta xorijiy oliy o'quv yurtlari tashkil etildi, yuzdan ortiq bakalavriat hamda 94 ta magistratura yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi, 2019–2020 o'quv yilidan 59 ta oliy o'quv yurtida sirtqi, 10 tasida kechki ta'lim joriy qilindi. Mazkur chora-tadbirlar natijasida yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 20 foizga oshdi. Sohaga byudjetdan ajratilayotgan mablag'lar miqdori yildan-yilga ortib, 2018 yilda 879 mlrd. so'm, 2019-yilda 1 trln. 288 mlrd. so'm mablag'lar ajratilgan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkich 1 trln. 888 mlrd. so'mni tashkil etmoqda. Professor-o'qituvchilarning maoshi 2018-yilda o'rtacha 25 foizga oshirilgan bo'lsa, 2019-yil 1 yanvardan 20 foizga, 1 iyuldan esa 25 foizga oshirildi [4]. Ikkinchi asos bo'yicha, korrupsiyaga qarshi kurashishda oliy ta'lim muhim ahamiyatga ega soha sifatida ajralib turadi, chunki oliy ta'lim mehnat faoliyatiga yo'llanma beruvchi yakuniy uzluksiz ta'lim bosqichi hisoblanadi. Butun dunyoda va mamlakatimizda oliy ta'lim olishga bo'lgan intilish juda yuqori va bu boradagi kuchli raqobat korrupsiyaviy holatlar kelib chiqish ehtimolini oshiradi. Raqamlarga murojaat qilsak, sohada o'tgan 2019-yilda avvalgi bitiruvchilar bilan birga 1.066.922 nafar nomzodlar OTMga kirish imtihonlarini topshirgan bo'lib, ularning 121 ming nafari talabalikka tavsiya etilgan. Ko'rish mumkinki, nomzodlarni oliy ta'limga qamrab olish darajasi 11.3 foizni tashkil qilmoqda. Uchinchi asos bo'yicha, oliy ta'lim «korrupsiyaning dastlabki maktabi» hisoblanadi, chunki bu faoliyatda talaba voyaga yetgan mustaqil shaxs sifatida o'qituvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri huquqqa zid faoliyatga kirishadi va unda korrupsiyaga moyil shaxsiyat shakllanib boradi [5]. Kelajakda korrupsiyaviy xususiyatga moyil kadrlarni mas'uliyatli lavozimni egallashi salbiy oqibatlarga sabab bo'ladi. Demak, oliy ta'limda korrupsiyani mavjud bo'lishi boshqa sohalarga ham korrupsiyani keng tarqalishiga yo'l ochib beradi. Sohadagi korrupsiya bilimsiz talabalarni shakllantirish bilan birga, yuqumli kasallik misoli ilmi talabalarni ham korrupsiya yo'lini tanlashga undaydi [6]. Yakuniysi, yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lmagan, ma'naviy qashshoq yosh avlodni qiyinchiliksiz davlat siyosatidan og'dirish, turli salbiy yo'llarga yetaklash mumkin bo'ladi va bu esa o'z navbatida davlatdagi siyosiy va ma'naviy holatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan muhim omillarni inobatga olgan holda davlat tomonidan oliy ta'limga dolzarb sohalardan biri sifatida e'tibor qaratilib, chinakam «korrupsiyasiz sohaga» aylantirish maqsadida jadal isloholatlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 14-moddasida, oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlab berishi ko'rsatilgan [7]. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-sonli Farmoni qabul qilinib [8], korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish



belgilandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmonida, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida OTM faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, OTMga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish belgilangan bo'lsa, [9] 2018-yil 5-iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3775-sonli Qarori asosida oliy ta'lim tizimida amalga oshiriladigan islohotlar bo'yicha «yo'l xaritasi» tuzildi, [10] 2019-yil 11-iyundagi «Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5763-sonli Farmonida, oliy ta'lim sohasida samarali boshqaruv tizimini yaratish ko'zda tutildi [11]. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27- maydagi «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5729-sonli Farmoni asosida 2019-yil 1-avgustdan boshlab eksperiment tariqasida oliy ta'lim sohasida «korrupsiyasiz soha» loyihasini amalga oshirish belgilandi [12]. Prezidentimiz tomonidan oliy ta'lim tizimiga qaratilayotgan alohida e'tibor va g'amxo'rliklarga qaramasdan, sohada korrupsiya holatlari, jiddiy muammo va nuqsonlar saqlanib qolmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ta'limni shaffof tartibga solish tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash, ko'proq hisobdorlik uchun boshqaruv imkoniyatlarini kuchaytirish va boshqaruv jarayoniga egalik huquqini oshirish korrupsiyadan holi ta'lim tizimlari uchun qulay bo'lgan muhitni yaratishga yordam beradi. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun har bir qadam uchun ta'lim resurslarini taqsimlash, ulardan foydalanishda turli manfaatdor tomonlar o'rtasida mas'uliyatni taqsimlashni belgilaydigan aniq me'yorlar va qoidalar, shaffof protseduralar va aniq siyosat asoslari zarur. Menejment, buxgalteriya hisobi, monitoring va audit bo'yicha ko'nikmalarni oshirish ta'limdagi korrupsiyani kamaytirishning asosiy talablari hisoblanadi. Nafaqat turli darajadagi ma'muriy xodimlarni, balki tizimdagi boshqa manfaatdor tomonlarni ham yaxshiroq o'qitish. Umuman olganda jamoatchilik uchun ma'lumotlarga kirish ishtirok etish, egalik qilish va ijtimoiy nazoratni shakllantirish uchun ajralmas hisoblanadi. Natijada, yetkazib berish nuqtasiga eng yaqin bo'lganlar maktab nafaqat firibgarlikni aniqlash, balki olish huquqiga ega bo'lgan narsalarni talab qilish uchun ham yetarlicha yaxshi ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Ta'limdagi korrupsiya mamlakat farovonligiga halokatli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ehtimol, ta'limdagi korrupsiyaning eng yuqori narxi ishonchni yo'qotishdir. Agar o'quvchilar yoki talabalar maktab yoki universitetga kirish va ballarni sotib olish mumkinligiga ishonishsa, mamlakatning iqtisodiy va siyosiy kelajagi havf ostida qolishi muqarrardir. Shuning uchun, birinchi navbatda oliy ta'lim sohasida mavjud korrupsiyaviy havf-hatarlarni aniqlash va ularni bartaraf etish lozim bo'ladi.

### References:

1. Sh.M.Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza, 2018-yil 7-dekabr, <http://gazeta.uz>.
2. Sh.M.Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan murojaatnomasi, 2020-yil 24-yanvar.



3. Final Report of World Bank Group, «Uzbekistan Education Sector Analysis» 2018, p –11
4. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar ma’lumotlari milliy bazasi, 2019-y., 3887-son.
5. Knaust I. S. «Korrupsiya uchrejdennyax visshego professionalnogo obrazavaniya: Magisterskaya dissertatsiya». Tomsk. 2016. 4 s.
6. Nataliya L. Taxonomy of Corruption in Higher Education Peabody Journal of Education», Nevly Emerging Global Issues, 2005.p 81-92.
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2013-y., 41-son, 543-modda.
8. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar ma’lumotlari milliy bazasi, 2019-y., 4134-son
9. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar ma’lumotlari milliy bazasi, 2018- y., 071313-son.
10. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar ma’lumotlari milliy bazasi, 2019-y., 3410-son.
11. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar ma’lumotlari milliy bazasi, 2019 y., 3450-son.
12. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar ma’lumotlari milliy bazasi, 2019-y., 3887-son.